

## BADIIY MATNLARNING BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMALARI MUOMMOLARI

**DILOROM BAXADIROVNA SULTANOVA**

*O'qituvchi,*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarlarni bevosita va bilvosita tarjima qilish usullari, tarjima jarayonida duch kelinadigan muommolar xaqida ma'lumotlar berilgan. Har qanday tarjimada badiiy asar o'z fazilatlaridan ma'lum darajada mahrum bo'ladi. Agar asar tarjimasi bevosita asliyatdan emas, vositachi tildan, yana bir tarjimonning ijodi orqali amalga oshirilsa, tabiiyki, u bu jarayonda yana bir qancha o'zgarishlarga duchor bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** *bevosita va bilvosita tarjima, yaqin va uzoq tillar, tilshunoslik, tarjimashunoslik, vositachi til, mahorat, muammo, asliyat.*

**Kirish qismi:** Ma'lumki, bevosita tarjima deganda to'g'ridan-to'g'ri asliyat tilidan tarjima qilish, bilvosita tarjima deganda vositachi til orqali o'girish ko'zda tutiladi. Bilvosita tarjimaning ikki shakli mavjud:

- muayyan asarni uning boshqa tildagi tarjimasi orqali tarjima qilish;
- til bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan taglama asosida o'girish.

Taglama (podstrochnik, taht ul-lafz) – mutaxassis yoki bilimdon tilshunos tomonidan til bilmaydigan tarjimonlar uchun bir tildan ikkinchi tilga aynan, so'zma-so'z, jumlama-jumla, satrma-satr (she'riy tarjima uchun) tayyorlab beriladigan tarjima. Bu tayyor masalliqdan keyin tarjimon osh pishiradi, ya'ni taglamani qayta ishlab, badiiy tarjima darajasiga ko'taradi. Bunda taglama vositachi matn sifatida maydonga chiqadi.

Tarjima nazariyasi bilvosita tarjimini, taglamani har qancha rad etmasin, tarjima amaliyoti bu vositalardan voz kecholmaydi: Jahondagi barcha tillardan bevosita tarjima qilishga o'tilmaguncha bu tajribaga murojaat etilaveradi.

Binobarin, arman olimi L.Mkrtychyaning taglamaga haykal o'rnatasa arziydi degan fikri hali-beri o'z kuchida qoladi. "Ammo, umuman olganda, taglama bo'yicha tarjima qilishning imkoniyatlari cheklangan, gohi vaqtlarda esa bu adabiy hayotni qiyshiq ko'zguda ko'rsatishga sabab bo'ladi. Puxta tayyorlangan taglama matni tildan-tilga juda aniq ag'daradi-yu, lekin butun bo'yoqlar, musiqiylik, lirika, uslub, milliy bezaklar, leksik-frazeologik boylik, kolorit – bularning bariga muallif va original bilan bevosita muloqotda bo'lgandagina erishish mumkin.

**Asosiy qism:** Afsuski, taglama – xiyonatkor, deb nechog‘li e’tirof etilmasin, bu hol asarlar misolida qanchalik tasdiqlanmasin, hozirgacha deyarli hech narsa o‘zgargani yo‘q. O‘zbek tilini biladigan tarjimonlar tayyorlash bilan hech kim shug‘ullanmaydi. Vositachi tilga xos ma’lum g‘oyaviy qarashlar, milliy madaniyat tushunchalari, uslubiy yondashishlar tarjima matniga muayyan yot chizgilarni olib kirishi, tarjimadan tarjima qilingan matnda shu sabab tushunmovchiliklar va chalg‘ishlar vujudga kelishi mumkin. Tarjimonning asliyat tili va matn xususiyatlaridan bexabar bo‘lishi tarjimada adekvatlikka erishish jarayonida qator muammolarni keltirib chiqaradi”.

Aksariyat hollarda taglama va u orqali qilingan tarjima muallifni shu qadar o‘zgartirib yuboradiki, ba’zan hatto muayyan tarjima ayni yozuvchi yoki shoirning qaysi asariga “mos kelishi”ni ham aniqlash amrimahol bo‘lib qoladi! G‘afur G‘ulomning “Встреча будущего” (“Kelajak istiqboliga”) to‘plamidan (Toshkent, 1968) o‘rin olgan “Kuz keldi” she’rining ikki tarjimasi shoirning ikkita boshqa-boshqa asari sifatida taqdim etilishi buning yorqin dalilidir. Bunday hollar tez-tez uchrab turadi.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Oybekning “Navoiy”, A.Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” romanlari, S.Ahmadning bir qancha hikoyalari, Mashrab lirikasi, Furqat g‘azallarining ruscha tarjimalari bilan yaqindan tanishuv tilni taglama andazasiga solib o‘g‘irish oqibatida original qanchalik tuzsizlanib, xiralashib, g‘arib bo‘lib qolishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi. Holbuki, o‘zbek adabiyoti asarlarining ruscha tarjimalari nuqul rus kitobxonlari uchungina mo‘ljallangan emas (garchand shuning o‘zidayoq katta gap bo‘lsa ham!) – asarlarimiz bu tarjimalar orqali dunyoning barcha tillariga o‘giriladi. Bu demak: nemis, ingliz, fransuz, italyan, ispan, xitoy, mo‘g‘ul, shuningdek, gruzin, arman, latish, moldavan, ukrain va boshqa ko‘pgina tillarda mohirona tasvir bilan birga, ana shu bema’ni xatolar, noo‘rin o‘zgarishlar, behuda erkinliklar, o‘zgacha tushunishlar, yanglishishlar ham takrorlanadi.

Boshqa tomondan, butun G‘arbiy Yevropa adabiyoti, shu jumladan, Osiyo va Afrikaning qariyb hamma adabiyoti hamda boshqa mamlakatlar yozuvchilarining kitoblari o‘zbek tilida ruscha tarjima orqali paydo bo‘ladi. Bevosita turkchadan, qisman hindcha, urdu, pushtu, arab, fors tillaridan tarjima qilishga urinishlar bo‘lib turibdi. Lekin bu kam... tojik tili, turkiy tillar oilasiga kiruvchi qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, tatar, turkman va boshqa tillardan tarjima qilinadi. Qolgan barcha hollarda vositali tarjimaga ko‘z tikiladi. Bu ahvolda o‘zbek tarjimoni original tilidan mutlaqo ajralib qolgan holda vositali tarjima ortidan ko‘r-ko‘rona ergashib ketaveradi. Yana shunisi ham borki, ruscha tarjimaja mavjud bo‘lgan va o‘zbek tiliga ko‘r-ko‘rona ko‘chirilgan barcha xatolar va yanglishuvlarga tarjimon, turgan gap, javob bermaydi. Ruscha tarjima qanday bo‘lsa, o‘zbekchasi ham (yangi nuqsonlar bilan birmuncha “boyigan” holda) xuddi shunday bo‘lib chiqaveradi”.

Qolaversa, ko'p hollarda bilvosita tarjimaning bevosita tarjimadan ustunlik qilishi ham bor gap.

Bilvosita tarjimaning yaqqol ko'rinib turgan ikki yomon tomoni bor: birinchisi – har qanday asar o'zi tarjima qilingan til xususiyatlarini ma'lum darajada o'ziga singdiradi, tarjima bo'lgan adabiy muhitga moslashadi; ikkinchisi – vositachi tildan o'g'irgan tarjimon muallif qolib, tarjimon talqiniga ergashadi, u sodir etgan xatolarni aynan takrorlaydi. Har qanday tarjima muayyan darajadagi xatolardan xoli bo'lmasligi haqidagi haqiqatdan kelib chiqsak, uning xatolari salafiniki bilan qo'shilib, ular ikki baravarga ko'payadi.

Modomiki, bilvosita tarjimasiz ish bitmas ekan, tarjimon vositachi tildagi tarjimalar orasidan eng muvaffaqiyatli nusxani tanlashi kerak bo'ladi.

Bilvosita tarjimada ko'pincha originaldan uzoqlashish yuz beradi. Tarjima originalga har qancha yaqin bo'lmasin, u ikkilamchi asar bo'lib qolaveradi. Buni tan olish tarjima san'atini kamsitish emas, chunki har bir davrning tarjimaga o'z talabi bor: vaqt o'tishi bilan original o'zgarmagani holda, tarjima eskirib boradi. Tarjimadan yana boshqa bir tilga o'girilganda bu xil tarjimanig o'ziga xos prinsiplariga amal qilinsa, originalga yaqinlikni saqlab qolishning ma'lum imkoniyatlarini topish mumkin.

Albatta, bevosita tarjima ham birlamchi hodisa emas. Eng yaxshi tarjima ham asliyatning o'rnini bosolmaydi. Turgan gapki, bu xil tarjimalarda “zanjir” uzaygan sari asl nusxa (original) yutqazib boraveradi – asarda aks etgan milliy o'ziga xoslik hamda uning ma'no-mazmuni, til boyligi, muallifning hikoya qilishdagi takrorlanmas uslubi va bo'lak shu kabi bebaho fazilatlar yo'qolaveradi, o'zgarishlar, har gal asarni “mahalliy sharoitga moslash” yuz beraveradi. Ba'zan ayrim o'ziga xos milliy unsurlar anglab bo'lmaydigan jarajada o'zgarib ketadi.

**Xulosa qismi:** Bu dalillar bevosita tarjimaning afzalligini yana bir karra tasdiqlaydi. Ma'lum bo'ladiki, bilvosita tarjimaning muammolari behaddu hisob. Lekin bevosita tarjimachilik ham qator muammolardan xoli emas. Ulardan ikkitasi eng muhim: birinchisi – bevosita tarjima bilan shug'ullanadigan mutaxassis tarjimonlarning sonini ko'paytirish bo'lsa, ikkinchisi – bevosita tarjimalarning sifatini yaxshilashdan iborat.

### **Adabiyotlar:**

1. Саломов Ф. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш тажрибаси // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 4-китоб. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
2. Исомиддинов 3. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
3. Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадиий услубни қайта тиклаш. Номзодлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2011.

4. Гиёсов Н. Билвосита таржима ва миллий зийнат // Таржима муаммолари (Мақолалар тўплами). 3-китоби. – Тошкент, 1991. – Б. 82–90.
5. Teshaboyeva Z. TRANSLATIONS OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS OF “BOBURNOMA” INTO ENGLISH //Paradigmata Poznání. – С. 74.
6. Xayrulla Hamidov, & Marxabo Abdullayeva. (2024). FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI . *Konferensiyalar | Conferences*, 1(8), 14–21.
7. Hamidov, X., & Abdullayeva, M. (2024). Alternative Versions and Functional Characteristics of Phraseologists in Uzbek. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 51-54.
8. Xayrulla Hamidov. Abdulla Qahhor uslubini tarjimada qayta yaratish masalalari (Monografiya). Publication date 2024/2. Volume 1. Pages-140.
9. Teshaboyeva, Ziyodaxon Qodirovna. "A Cognitive Study of “Baburname”’S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary."
10. Marxabo Abdullayeva. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari (Monografiya). - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi",2024, 148 b
- 11.12.Лафасов Урак Пазирович ва бошқалар. Ўзбек тили (машқлар тўплами) ўқув қўлланма. Ўзбекистон: - Ўзбекистон нашриёти. 2002/1. 104 бет
- 12.13.Urak Pazilovich Lafasov. O'zbek tili ( mashqlar to'plami) o'quv qo'llanma . O'zbekiston, TDSHU nashriyoti. 2024/1. 100 bet
- 13.Lafasov , U. P. . (2023). ABDALLAH QADIRI’S NOVELS USING THE METHOD OF METONYMY. SPAST Abstracts, 2(02). Retrieved from <https://spast.org/techrep/article/view/4591>